



Tasdiqlayman  
Transport nazorati inspeksiyasi  
boshlig'i

J.A.Karimov  
2024.09.09.

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi  
Transport nazorati inspeksiyasida o'tkazilgan yig'ilish**

**B A Y O N I**

**Toshkent shahri**

**105-son**

**2024.05.09.**

Raislik qildi:

J.Karimov – Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i

Qatnashdilar:

Boshliq o'rinbosari – boshqarma boshlig'i, bo'lim boshliqlari, tarkibiy va hududiy bo'limlar mas'ul xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI:**

- 1. Transport nazorati inspeksiyasida Temir yo'l va metropolitenda nazorat yo'nalishi bo'yicha 2024-yilning o'tgan 8 oyi davomida, shu jumladan avgust oyi davomida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi haqida**
- 2. 2024-yil boshidan temir yo'l transportida sodir etilgan hodisalarni yig'majild hujjatlarini 3376-sonli Nizomning tegishli bandlariga asosan bajarilganligi tekshiruvi natijalari bo'yicha muhokamasi haqida.**

*(Karimov, Abduraxmanov, Axunjanov, Axmedov, Nurxojaev, Xojiboyev, Mertozaev, Kalmuratov, Kurbanazarov, ..., Karimov)*

Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i J.Karimov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Administrasiya rahbari va Hukumat tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda ««Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son Qarori bilan belgilangan tartibda so'zsiz bajarilishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davomida jami 107 ta tekshiruv o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, jami 115 ta (2023-yilda 30 ta) tekshirilgan. Shulardan 107 ta tadbirkorlik subyektlari, 8 ta davlat muassasasida tekshiruvlar o'tkazilgan.

Mazkur tekshiruvlar jarayonida 11 505 ta (2023-yilda 1538 ta) temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solishga oid normativ hujjatlar talablari buzilishi, infratuzilma va harakat tarkiblarining nosozligi yoki foydalanish muddati o‘tganligi aniqlangan.

Yuqorida aniqlangan kamchiliklardan aynan harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi 3296 ta (2023-yilda 539 ta) kamchiliklar aniqlangan, jumladan:

- 32 ta (2023-yilda bo‘lmagan) temir yo‘llarda, strelkali o‘tkazgichlarda tezliliklar cheklangan;

- 672 ta (2023-yilda 246 ta) temir yo‘llari izlari, strelkali o‘tkazgichlar yopilgan;

- 174 ta (2023-yilda 21 ta) lokomotiv va drezinalar foydalanishdan qoldirilgan;

- 51 ta (2023-yilda bo‘lmagan) yo‘lovchi vagonlar foydalanishdan qoldirilgan;

- 282 ta (2023-yilda 32 ta) yuk vagonlari foydalanishdan qoldirilgan;

- 17 ta (2023-yilda qilinmagan) yuk poyezdlarini texnik tayyorgarligi bekor qilingan;

- 2068 ta boshqa kamchiliklar (2023-yilda 240 ta) (texnik va o‘lchov vositalari, nosoz asbob-uskunalar, bilim pastligi, texnik hujjatlardagi kamchiliklar va boshqa sabablar) aniqlangan.

Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan temir yo‘l transporti sohasida faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot va korxonalariga taqiqllovchi choralarni belgilovchi, bajarilishi majburiy bo‘lgan 254 ta (2023-yilda 28 ta) ko‘rsatmalar berildi.

Temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi nazorati bo‘yicha bartaraf etilmagan kamchiliklar yuzasidan inspeksiya tomonidan huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llash to‘g‘risida iqtisodiy sudga 7 ta davo arizasi hamda qonuniy chora qo‘llash haqida prokuraturaga 3 ta murojaat xati kiritilgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida temir yo‘l kesishmalarida harakat xavfsizligi talablari buzilishi oldini olish maqsadida 7 ta taqdimnomalar berildi.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida inspeksiya tomonidan temir yo‘l transporti xavfsizligini ta‘minlash va texnik vositalarning ishonchliligini oshirishga qaratilgan jami 1328 ta profilaktik tadbirlar o‘tkazish belgilangan bo‘lib, amalda 1715 ta (2023-yilda 1115 ta) profilaktika tadbirlari o‘tkazilgan (seminar yig‘ilishlar, texnik mashg‘ulotlar, manzilli uchrashuvlar). Mazkur profilaktika tadbirlarida jami 15541 nafar (2023-yilda 4691 nafar) temir yo‘l tashuvlari bilan bevosita bog‘liq ishchi xodimlar ishtirok etgan va ular bilan tushuntirish ishlari olib borilgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida 16 ta (2023-yilda 14 ta) temir yo‘l transporti obyektlari, mahsulotlari va texnologiyalarining belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan ularni doimiy yoki vaqtincha foydalanishga qabul qilishda ishtirok etildi.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida 54 ta temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi talablarini buzish holatlari bo‘yicha temir yo‘l transporti korxonalari va tashkilotlari tomonidan olib boriladigan xizmat tekshiruvlarida ishtirok etildi.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida temir yo‘l transporti korxonasi va tashkilotlari tomonidan poyezdlar harakati xavfsizligi qoidalarining buzilish holatlarini tahlil qilinib, tahlil natijalari bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning takrorlanmasligi uchun temir yo‘l transporti korxonalari va tashkilotlariga 199 ta (2023-yilda 106 ta) xatlar yo‘naltirilgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida davomida Transport vazirligining 2022-yil 10-martdagi 4-sonli buyrug‘iga asosan 25 ta (2023-yilda 19 ta) temir yo‘l kesishmalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiyalarning ko‘rigida ishtirok etildi.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida 17 ta (2023-yilda 7 ta) tashkilotlarni murojaatiga asosan attestatsiya komissiyalarida ishtirok etildi. Ushbu komissiyalarda 224 ta xodimlar (2023-yilda 104 ta) attestatsiyadan o‘tkazilgan, shulardan 27 ta xodimlar qayta attestatsiyaga qoldirilgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tashkilotlarning murojaatlariga asosan 13 ta (2023-yilda 5 ta) temir yo‘l va metropoliten nazorati bo‘yicha xodimlar mutaxassis sifatida ishtirok etgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida Favqulodda vaziyatlar vazirligining prognoziga asosan respublikaning tog‘li hududlarida 10 ta (2023-yilda 17 ta) tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi o‘tkazilgan.

Temir yo‘llarda tashishlar xavfsizligini ta‘minlash va temir yo‘l kesishmalarida poyezdlar harakat xavfsizligi buzilish hodisalarini oldini olish mavzusida ommaviy axborot vositalarida jami 79 ta (2023-yilda 33 ta) chiqishlar tashkil etildi. Jumladan: 6 marotaba televidenie orqali, gazeta va jurnallarda 34 ta maqola hamda veb-saytda 39 ta maqola chop etildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-maydagi 387-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, yuqori tezlikdagi temir yo‘l uchastkalarida harakat xavfsizligini ta‘minlash va obodonlashtirish bo‘yicha Transport vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq 7 marotaba (4 marotaba Qarshi, 3 marotaba Buxoro yo‘nalishda) Idoralararo komissiyasi sayyor yig‘ilishlari tashkil qilindi.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga qarashli temir yo‘llarda poyezdlar harakat xavfsizligi buzilishi bo‘yicha 37 ta holatga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilning shu davrida 51 ta holatni tashkil etgan.

Sanoat korxonalari shoxobcha yo'llarida hisobot davrida 17 ta temir yo'l tashishlari xavfsizligi buzilishlariga yo'l qo'yilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davrida 24 ta holatni tashkil etgan.

2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida "Toshkent metropoliteni" DUKga qarashli temir yo'llarda poyezdlar harakat xavfsizligi buzilishi bo'yicha 32 ta 2023-yilning shu davrida 26 ta holatni tashkil etgan.

Avtomashina haydovchilari aybi bilan temir yo'l kesishmalarida yuz berayotgan harakatdagi tarkibning avtotransport vositasi bilan to'qnashuvlari poyezdlar va avtotransport vositalari harakati xavfsizligiga haqiqiy xavf tug'dirmoqda.

Temir yo'l kesishmalarida harakatdagi tarkibning avtomashina bilan to'qnashuvlari bo'yicha 20 ta holatga (2023-yilda bu ko'rsatkich 39 ta holatga) yo'l qo'yilgan. To'qnashuvlar natijasida 2024-yilning yanvar-avgust oylari davrida 7 nafar kishi halok bo'lgan, 2023-yilda bu ko'rsatkich 3 nafarni tashkil etgan.

2024-yil boshidan temir yo'l transportida sodir etilgan 48 ta hodisalarni yig'majild hujjatlarini 3376-sonli Nizomning tegishli bandlariga asosan bajarilganligi yuzasidan ichki tekshiruv ma'lumotnomasi bilan tanishtirib o'tildi.

Sodir etilgan hodisalarda o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar bo'yicha barcha hududiy bo'lim boshliqlari axborot berishdi. Inspeksiya boshlig'i sodir etilgan hodisalar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini sifatli, shaffof o'tkazish, hodisalarni sabablarini va bu sabablarni keltirib chiqarayotgan omillarini aniqlash, bularni oldini olish choralarini belgilash lozimligini ko'rsatib o'tdi.

Shuningdek, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish har bir mas'ul xodimning ustuvor vazifasi ekanligi, kamchilikka yo'l qo'yayotgan mas'ul xodimlarga qat'iy choralar ko'rilishi hamda har bir bajarilmagan topshiriqqa yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat va jiddiy masala sifatida qaralishi lozimligi haqida gapirib otdi.

Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida sodir bo'lgan temir yo'l hodisasiga to'xtalib o'tib, temir yo'llarda harakat xavfsizligiga jiddiy e'tibor qaratish, qo'riqlanmaydigan temir yo'l kesishmalarini qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmalari toifasiga o'tkazish borasida zarur ishlarni amalga oshirish, nazorat tadbirlarini kuchaytirish zarurligi haqida so'zladi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tayyorlangan hisobot puxta va sifatli tayyorlanmaganligini, jumladan ma'lumotlarda hudud va xodimlar kesimida amalga oshirilgan va bajarilgan ishlar aks ettirilmaganligi, kerakli, zarur hujjatlar va ma'lumotlar kiritilmaganligi tanqid qilindi.

**Kun tartibidagi masala yuzasidan Boshliq o'rinbosari A.Abduraxmanov so'zga chiqib**, sohada joriy yilning yanvar-iyul oylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berdi (*hisobot ilova qilinadi*).

Shu bilan birga, hududiy bo'lim boshliqlari so'zga chiqib, hisobot oyi davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot berdilar.

Kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yig'ilish **qaror qiladi**:

1. Boshliq o‘rinbosari A.Abduraxmanov tomonidan 2024-yilning o‘tgan 8 oyi davomida, shu jumladan avgust oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Temir yo‘l transporti va metropolitenda nazorat boshqarmasi va Temir yo‘l transportida nazorat hududiy bo‘limlari xodimlari sodir bo‘lgan hodisalar bo‘yicha tegishli buyruqqa asosan o‘tkaziladigan xizmat tekshiruvlarida masalani har tomonlama, sinchkovlik bilan o‘rganmagan, holatga oid barcha tegishli hujjatlarni jamlashda kamchilikka yo‘l qo‘ygan hamda rasmiylashtirilgan hujjatlarda kerakli ma’lumotlarni to‘liq aks ettirmagan taqdirda amaldagi qonun va qonun osti hujjatlarga binoan intizomiy javobgarlikka tortilishi haqida OGOHLANTIRILSIN.

**3. Belgilansinki, joriy yilning 10-sentabrdan boshlab:**

sodir bo‘lgan hodisalar bo‘yicha xizmat tekshiruvini o‘tkazish yuzasidan tegishli buyruq asosan Temir yo‘l transportida nazorat hududiy bo‘limlari xodimlari xizmat tekshiruvida ishtirok etishi ta‘minlanadi;

sodir bo‘lgan hodisalar bo‘yicha o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan inspeksiya rahbari nomidan tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari nomiga taqdimnomalar kiritiladi;

o‘tkaziladigan rejali profilaktik tadbirlarda sodir bo‘lgan hodisalar bo‘yicha xizmat tekshiruvlari natijalari yig‘ilish qatnashchilariga o‘qib eshittiriladi.

**4. Boshliq o‘rinbosari v.v.b. A.Abduraxmanov, Temir yo‘l transportida nazorat hududiy bo‘limlari:**

**Temir yo‘l transportida nazorat hududiy bo‘limlari** Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-iyulda 3376-son raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Temir yo‘l transporti hamda metropolitenda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq hodisalarni tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomi”ga asosan xizmat tekshiruvi yig‘majildiga kiritiladigan hujjatlarini to‘liq yig‘ilishi ta‘minlansin.

**Bayonni yozdi**



**D.Axunjanov**